

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

# YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 3

2026

# YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 3



**Bosh muharrir:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**SALAEV NODIRBEK**  
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi  
professor, Yuridik fanlar doktori.

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**RUSTAMBEKOV ISLAMBEK**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Yuridik fanlar doktori, professor.

## **TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |**

**Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:**

**DAVRONOV ATOBEK**  
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,  
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

**KARIMOV FARHOD**  
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,  
A. Avloniy nomidagi  
Malaka oshirish instituti prorektori;

**BAZAROVA DILDORA**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
yuridik fanlar doktori, professor;

**IMOMOV NURILLO**  
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi  
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

**KHAIRIEV NODIRJON**  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

**NEMATOV JURABEK**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida  
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

**ISMAILOV SHUKHRATJON**  
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat  
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

**KHABIBULLAEV DAVLATJON**  
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik  
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida  
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

**OCHILOV KHASAN**  
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent;

**IBROKHIMOV JAMSHID**  
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

**GAFUROVA NOZIMAKHON**  
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro  
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**NARZIEV OTABEK**  
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy  
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,  
yuridik fanlar doktori;

**MUSAEV BEKZOD**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**MURATAEV SERIKBEK**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,  
yuridik fanlar nomzodi;

**KAMALOVA DILDORA**  
Yuridik fanlar doktori, professor;

**YUSUPOV SARDORBEK**  
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va  
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

**KHUJAEVA SHOKHJAKHON**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

**CHORIEVA DILBAR**  
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov**

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

|                                                                                                                                     |           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>1. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI.....</b>                                                  | <b>5</b>  |
| Ummatov Muhammadrasul Tursunovich                                                                                                   |           |
| <b>2. ПОДГОТОВКА МЕДИАТОРОВ ПО ТРУДОВЫМ СПОРАМ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ.....</b>                         | <b>15</b> |
| Мавлонова Нигина Баходировна                                                                                                        |           |
| <b>3. SUDYALAR DAXLSIZLIGI: HUQUQIY TABIATI VA UNI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....</b>                             | <b>30</b> |
| Zaripov Jo'rabek Sodikovich                                                                                                         |           |
| <b>4. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕДИАЦИИ В РАЗРЕШЕНИИ ТРУДОВЫХ СПОРОВ: АНАЛИЗ ЗАТРАТ И ВЫГОД.....</b>                             | <b>40</b> |
| Мавлонова Нигина Баходировна                                                                                                        |           |
| <b>5. ОСОБЕННОСТИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ НА БУДУЩЕЕ ЖИЛОЕ ПОМЕЩЕНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</b>                     | <b>53</b> |
| Курбонова Комилабону Рамзбек кизи                                                                                                   |           |
| <b>6. OILA HUQUQIDA NIKONLANUVCHI SHAXSLARNING MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TISHINING HUQUQIY ASOSLARI.....</b>                      | <b>67</b> |
| Zaripov Jo'rabek Sodikovich                                                                                                         |           |
| <b>7. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МЕДИАЦИИ В ТРУДОВЫХ СПОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: НАУЧНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ.....</b> | <b>77</b> |
| Мавлонова Нигина Баходировна                                                                                                        |           |



## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.21651688>

**Ummatov Muhammadrasul Tursunovich**

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati, huquqiy asoslar, institutsional islohotlar hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, milliy va xorijiy tajriba asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda istiqbollari bayon etilgan.

**Tayanch iboralar:** jamoat xavfsizligi, xavfsizlik tizimi, huquqiy asoslar, davlat siyosati, ichki ishlar organlari, profilaktika, institutsional islohotlar, xavfsizlikni boshqarish, jamoat tartibi, rivojlanish bosqichlari.

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

**Уматов Мухаммадрасул Турсунович**

доктор философии по юридическим наукам (PhD), профессор

**Аннотация.** В статье проведён научно-теоретический анализ этапов становления и развития системы обеспечения общественной безопасности. Рассмотрены государственная политика, нормативно-правовые основы, институциональные реформы и современные механизмы управления в сфере обеспечения общественной безопасности. На основе национального и зарубежного опыта определены приоритетные направления и перспективы дальнейшего совершенствования системы обеспечения общественной безопасности.

**Ключевые слова:** общественная безопасность, система безопасности, государственная политика, правовые основы, органы внутренних дел, профилактика, институциональные реформы, управление безопасностью, общественный порядок, этапы развития.

## STAGES OF DEVELOPMENT OF THE PUBLIC SECURITY SYSTEM

**Ummatov Mukhammadrasul Tursunovich**

doctor of philosophy on sciences in law (PhD), professor

**Annotation:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the stages in the formation and development of the public safety system. It examines state

policy, the legal framework, institutional reforms, and modern governance mechanisms in the field of public safety. Based on national and international experience, the study identifies the main directions and future prospects for improving the public safety system.

**Keywords:** public safety, security system, state policy, legal framework, internal affairs bodies, crime prevention, institutional reforms, security management, public order, stages of development.

Har qanday ijtimoiy-huquqiy institut o'zining rivojlanish tarixiga ega bo'lib, u zamon va davr o'zgarishi bilan yangi mazmun hamda shakllarga ega bo'lib boradi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamoat xavfsizligini har bir fuqaroning tinchligi va osoyishtaligi uchun davlatning asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Bu sohada olib borilayotgan islohotlar, asosan, mahallabay ishlash tizimiga, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishini xalq manfaatlariga moslashga qaratilgan<sup>1</sup>. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi ham aynan shunday dialektik rivojlanish qonuniyati doirasida shakllangan. Mazkur tizimning tarixiy-huquqiy evolyutsiyasini o'rganish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, u zamonaviy tizimning paydo bo'lish omillari, transformatsiya bosqichlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari chuqurroq anglash imkonini beradi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining rivojlanishini o'rganishda tarixiy-huquqiy metodologiya yetakchi usul sifatida qo'llaniladi. Ushbu metodologiya hodisani konkret tarixiy sharoitda, uning rivojlanish dinamikasi va o'zgarishlar mantig'i nuqtai nazaridan tahlil qilishni taqozo etadi. Tizimli-retrospektiv yondashuv bizga jamoat xavfsizligining turli tarixiy davrlardagi funksional holatini hamda shakl-shamoini tizimli ravishda yoritish imkonini beradi. Bizningcha, O'zbekistonda mazkur tizimning rivojlanishini besh asosiy bosqichga ajratib ko'rsatish ilmiy-metodologik jihatdan asoslidir.

***I bosqich - Temuriylar imperiyasi va xonliklar davri (an'anaviy tarixiy model).***

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ilk shakllari O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatchilik tizimlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Ushbu bosqichda xavfsizlikni ta'minlash asosan urf-odatlar, an'analar va diniy normalar orqali amalga oshirilgan. Mehnat taqsimoti yuzaga kelishi, xususiyl mulk va ijtimoiy sinflarning shakllanishi bilan esa jamoat xavfsizligi davlat tomonidan muhofaza qilinadigan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan soha darajasiga ko'tarilgan<sup>2</sup>.

O'rta Osiyo davlatchilik an'anasida xavfsizlikni ta'minlash tizimi mahalla instituti atrofida shakllangan. Zero mahalla fuqarolarning yashash joyiga asoslangan o'zini o'zi boshqarish tuzilmasi bo'lib, u nafaqat ijtimoiy va diniy funksiyalarni, balki tartib saqlash hamda nizolarni hal etish vazifalarini ham amalga oshirgan. Mahalla oqsoqollarining vakolatlari orasida noxushliklar ro'yxatga olinishini nazorat qilish, kelishmovchiliklarni hal etish, yoshlarni tarbiyalash va jamoaning axloqiy yaxlitligini

<sup>1</sup><https://sputniknews.uz/20260409/jamoat-xavfsizlik-islohtakliflar-maqullanish-56788129.html>

<sup>2</sup>Азизов А.А. Ўзбекистонда давлатчилик тарихи: эски ҳуқуқ манбалари. —Т.: Университет, 2019. — Б. 45–47.

saqlash kabi vazifalar bo'lgan<sup>1</sup>. Bu tizimning muhim xususiyati bo'lgan murosakelishuvli tartibga solish va jamoaviy mas'uliyat tamoyillarining ustuvorligi hisoblangan.

Temuriylar davridagi **“Temur tuzuklari”** jamoat xavfsizligini ta'minlashning sistematik modeli sifatida o'rganishga arziydi. Unda davlat hokimiyati tizimining har bir bo'g'inini tashkil etgan sadr, amirlar, choparlardan tortib qo'rboshi va muhtasibgacha bo'lgan shaxslarning har biriga xavfsizlik va tartibni saqlashda ma'lum funksiyaga yuklatilgan. Muhtasibning hisobot o'tkazish, bozor va jamoat joylari xavfsizligini nazorat qilish vakolatlari zamonaviy jamoat xavfsizligi xizmatining ilk namunalari sifatida qaralishi mumkin<sup>2</sup>.

XIX asr boshlarida Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligining huquqiy tizimi shariat normalari, rasmiy qonunlar va odat huquqi sintezidan iborat bo'lgan. Ushbu davlatlarda jamoat xavfsizligini qozixonadan tortib oqsoqollik institutigacha bo'lgan kompleks organ tizimi ta'minlagan<sup>3</sup>. Turkiston chor Rossiyasi tomonidan 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi hududiga aylantirilgach, bu yerda harbiy ma'muriy boshqaruv modeli joriy etilgan, jandarmeriya, pochta-telegraf politsiyasi va boshqa kolonial politsiya tuzilmalari ish boshlagan. Shunday qilib, bu davr davomida mahalliy an'anaviy tizimlar bilan imperiya tomonidan joriy etilgan institutlar dual tuzilma holatida yonma-yon mavjud bo'lgan.

***II bosqich. Sovet davri (1917–1991) (markazlashtirilgan repressiv model)***  
1917-yilgi Oktyabr to'ntarishidan keyin jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi tubdan o'zgargan. 1917-yil 28-oktyabrdagi RSFSR XKK “Ishchi militsiyasi to'g'risida”gi Qarori<sup>4</sup> bilan an'anaviy politsiya instituti tugatilib, o'rniga sinfiy-siyosiy xususiyatga ega bo'lgan militsiya tashkil etildi. 1918-yil 13-oktyabrdagi Instruksiya bilan uning tarkibi va vazifalari belgilab qo'yilgan<sup>5</sup>. 1924-yilda idoraviy militsiya tuzilgan va uning vazifalari qatorida korxona va tashkilotlarni himoya qilish, moddiy qadriyatlarni muhofaza etish va o'g'rilik jinoyatlarining oldini olish belgilangan.

Ushbu bosqichning 1930-yillari ikkinchi yarmi eng og'ir va qarama-qarshi davrlardan biri hisoblanadi. V.N.Kudryavsev va A.I.Trusov ilmiy tadqiqotlarida asoslanganidek, ommaviy siyosiy repressiyalar jinoyatchilik «profilaktikasi»ning ustuvor yo'nalishiga aylandi<sup>6</sup>. 1934-yil 1 dekabrdagi “Terrorizm ishlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida”gi Qaror ommaviy qamoqqa olinishlarni rasmiylashtirdi. Ushbu davr jamoat xavfsizligini ta'minlashning repressiv modeli shakllangani va insonparvarlik tamoyiliga rioya etilmaganligi, insoniylik g'oyalarining susayishi davri bilan tavsiflanadi. Bu modelda davlat va shaxs manfaatlari o'rtasidagi asosiy kuchlar muvozanati davlat foydasiga burib yuborilgan edi.

<sup>1</sup>Мухаммадиев А. Махалла – миллатнинг асосий пойдевори. – Т.: Шарк, 2021. – Б. 32.

<sup>2</sup>Темур тузуклари / Ф.Алимухаммад нашри. – Т.: Fan va texnologiya, 2018. – Б. 18, 76–78.

<sup>3</sup>Шайхова З.А. Бухоро амирлигининг ҳуқуқий тизими (XIX аср).–Т.:ЎзР ФА, 2020.–.112.

<sup>4</sup>Постановление НКВД РСФСР от 28 октября 1917 г. «О рабочей милиции» // Собрание узаконений и распоряжений правительства за 1917–1918 гг. – М., 1942. – С. 16.

<sup>5</sup>Постановление НКВД РСФСР, Наркомюста РСФСР от 13.10.1918 «Об организации Советской Рабоче-Крестьянской Милиции (Инструкция)» // СУ РСФСР. – 1918. – № 75. – Ст. 813.

<sup>6</sup>Кудрявцев В.Н., Трусов А.И. Политическая юстиция в СССР. – М.: Наука, 2000. – С. 6.

1950-yillarda, Stalin davri tugagandan so'ng, militsiyada jinoyatchilik profilaktikasiga, mulkni himoya qilishga hamda jamoat tartibi va xavfsizligini mustahkamlashga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Bu davrda xavfsizlik paradigmasining ijtimoiylashishi kuzatila boshladi. 1966-yil 26-iyuldagi «Ozodlikdan mahrum qilingan joylardan ozod qilingan shaxslar ustidan militsiya organlarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi hamda "Bezorilik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarorlar<sup>1</sup> huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. 1969-yilda SSR Ichki ishlar vazirligining Buyrug'i bilan "Militsiya organlari tomonidan jinoyatlar oldini olishni tashkil etish va taktika asoslari to'g'risidagi Instruksiya" qabul qilingan, bu bilan jinoyatlarni oldini olish IIO xodimlarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilgan<sup>2</sup>.

1970 – 1980-yillar sovet tizimida kompleks jinoyatlarni oldini olish tizimi shakllanish davri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu davrda IIV, IIBB, IIB va shahar-tuman ichki ishlar organlari tarkibida profilaktika bo'linmalari tuzilgan. 1974-yil 15-martdagi SSSR IIV Buyrug'i bilan profilaktika xizmati rasmiy ravishda tashkil etildi. Biroq 1983-yilda ushbu maxsus profilaktika bo'linmalari tugatilgan va bu funktsiya IIOning barcha xizmatlari zimmasiga yuklatilgan, bu esa o'z navbatida tizimli faoliyatning buzilishiga olib kelgan. 1991-yilda RSFSR Oliy Kengashining "Militsiya to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, undan militsiyaning "ijtimoiy foydali mehnatdan bosh tortuvchilarni aniqlash" kabi ideologik vazifalari chiqarib tashlangan.

**III bosqich. Mustaqillikning shakllanish davri (1991–2016) (shakllanish-rivojlanish modeli).** 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng<sup>3</sup> jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida tubdan o'zgarishlar davri boshlandi. 1991-yil 6-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun militsiyaga zamonaviy talablar asosidagi maqom berdi<sup>4</sup>. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya esa inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etib<sup>5</sup>, jamoat xavfsizligi sohasini konstitutsiyaviy asosga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" (1997) asarida milliy xavfsizlik to'g'risidagi konseptual yondashuvni ishlab chiqqan edi<sup>6</sup>. Ushbu asar 1997-yil 29-avgustdagi "Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishiga nazariy asos bo'lib xizmat

<sup>1</sup>Указ Президиума Верховного Совета СССР от 26 июля 1966 г. № 5362-VI «Об усилении ответственности за хулиганство» // Ведомости Верховного Совета СССР. – 1966. – № 30.

<sup>2</sup>Зинченко О.В. Становление и развитие отечественной системы предупреждения преступлений органами внутренних дел: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2016. – С. 140.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 31 августдаги "Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида"ги 336-XII-сонли Конституциявий Қонуни.

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 6 декабрдаги "Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органлари тўғрисида"ги 408-XII-сонли Қонуни.

<sup>5</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. – Т.: Ўзбекистон, 1992.

<sup>6</sup>Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 85–102.



qilgan<sup>1</sup>. Mazkur qonun birinchi marta O'zbekistonda jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy turi sifatida mustahkamlagan, biroq uning mazmunini ochib berilmagan edi.

1999-yil fevral-mart oylarida Toshkentda sodir etilgan terroristik aktlar hamda mintaqadagi radikalizm xavfi kuchayishi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishiga olib keldi<sup>2</sup>. Bu davr davomida jamoat xavfsizligiga doir 15dan ortiq qonun qabul qilindi, jumladan: "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (2000), "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi (2000), "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi (2000) qonunlar. Mahalla instituti bu bosqichda siyosiy-ijtimoiy tuzilma sifatida shakllantirilib, 1999-yilgi "Fuqarolar yig'inlari to'g'risida"gi Qonun<sup>3</sup> va 2014-yilgi "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi to'g'risidagi Nizom<sup>4</sup> orqali xavfsizlik ta'minlashning quyi bo'g'ini sifatida huquqiy mustahkamlangan.

Bu bosqich yakuni sifatida 2014-yilda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun<sup>5</sup> alohida e'tiborga loyiq. Ushbu qonun profilaktika tizimini alohida huquqiy institut sifatida rasmiylashtirib, jamoat xavfsizligini ta'minlashning profilaktik bo'g'ini yaratilishiga poydevor yaratgan. Shu bilan birga, mazkur bosqich umumiy holda eklektik xususiyatga ega bo'lib, sovetcha tarixiy merosi bilan mustaqillik davri yangi huquqiy asoslarining simbiozi yaqqol ko'zga tashlanadi. Tizim mavjud edi, biroq uni rivojlantirish uchun yangi sifat turtki, konseptual yondashuv, zarur bo'lgan.

***IV bosqich. Islohotlar bosqichi (2016–2021) (institutsional rekonstruksiya davri).*** 2016-yilda Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti lavozimiga saylangandan keyin mamlakatda keng ko'lamli islohotlar davri boshlandi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi ham ushbu islohotlar doirasiga to'liq qamrab olindi. Ushbu bosqichni ochgan muhim hujjat – 2017-yil 7-fevraldagi "Harakatlar strategiyasi"<sup>6</sup> - jamoat xavfsizligini oshirish bo'yicha 5 ta ustuvor yo'nalishni ajratib ko'rsatdi.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги "Миллий хавфсизлик концепцияси тўғрисида"ги 467-І-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – 1997. – № 9. – 230-модда.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 15 декабрдаги "Терроризмга қарши кураш тўғрисида"ги 167-ІІ-сонли Қонуни // Lex.uz.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 22 октябрдаги "Фуқаролар йиғинлари тўғрисида"ги 832-І-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – 1999. – № 9.

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 4 мартдаги "Фуқаролар йиғинининг "Маҳалла посбони" жамоатчилиқ тузилмаси тўғрисида"ги 47-сон Қарори // Lex.uz.

<sup>5</sup>Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги "Ўқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги ЎРҚ-371-сонли Қонуни // Lex.uz.

<sup>6</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони // Lex.uz.

2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son Farmon<sup>1</sup> ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishni boshlab berdi. Farmon bilan IIO boshqaruv tizimi maqbullashtirilib, xodimlarning bevosita aholi uchun qulay joylarda xizmat qilishi ta'minlandi. Har bir mahallaga bitta profilaktika inspektori ajratilishi joriy etildi. Ayni paytda jinoyatchilik statistikasi xalqaro hamjamiyat umume'tirof etilgan 100 ming aholiga nisbatan hisoblash metodiga o'tkazildi<sup>2</sup>. Aynan shu birgina xususiyat jamoat xavfsizligiga doir ko'rsatkichlarni shaffof va xalqaro tuzilmalarga muvofiq rasmiylashtirishga o'tish orqali mamlakat xavfsizlik tizimining xalqaro standartlashuv harakatini boshlab berganligini alohida e'tirof etish kerak.

2016-yilgi yangi tahrirdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun<sup>3</sup> IIO huquqiy maqomini zamonaviy talablarga muvofiqlashtirdi. Ushbu davrda ko'plab tizimli hujjatlar qabul qilindi: 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror; 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3528-son "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi Qaror va 2018-yil 24-dekabrda PQ-4075-son Qaror<sup>4</sup> mazkur sohadagi tizimli innovatsiyalarni belgilab berdi.

2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmon<sup>5</sup> mazkur bosqichning eng muhim hujjati sifatida e'tirof etilishi lozim. Ushbu Farmon bilan Ichki ishlar vazirligi tarkibida Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi; "Mahalla huquq-tartibot maskani" konsepsiyasi joriy qilindi; mahalla darajasidagi profilaktika mexanizmlari takomillashtirildi. IIV tarkibida jamoat xavfsizligi bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar Markazi, shuningdek huquqiy statistika va operativ hisobga olish ma'lumotlari markazini tashkil etish ko'zda tutildi. Shunday qilib, 2016–2021 yillar davrida mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlashning institutsional arxitekturasining yangi modeli yaratildi.

***V bosqich. Konseptual-tizimli bosqich (2021 yildan - hozirgacha) (Yangi O'zbekiston modeli)*** 2021-yil 29-noyabrda PF-27-son Farmon bilan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" va "2022–2025 yillarda O'zbekiston

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги "Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини tubdan ошириш... чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5005-сон Фармони // Lex.uz.

<sup>2</sup>Тўраев Ж.Ш. Жамоат хавфсизлиги концепцияси – мамлакатда тинч ва осойишта ҳаётни таъминлаш гарови сифатида // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies. – 2022. – Vol. 2, Iss. 1. – Б. 245.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги "Ички ишлар органлари тўғрисида"ги ЎРҚ-407-сонли Қонуни // Lex.uz.

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 декабрдаги "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4075-сон Қарори // Lex.uz.

<sup>5</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6196-сон Фармони // Lex.uz.

Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi<sup>1</sup> tasdiqlandi<sup>1</sup>. Bu hujjat jamoat xavfsizligi tizimining rivojlanishida yangi, sifat jihatidan o'zgacha bosqichning boshlanishini ko'rsatadi. Ilk marta mamlakatimizda "jamoat xavfsizligi" va "jamoat xavfsizligini ta'minlash" tushunchalariga normativ ta'riflar mustahkamlandi, soha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va tamoyillari belgilandi, 10 ta vazirlik va idora (Vazirlar Mahkamasi, IIV, DXX, Milliy gvardiya, FVV, Bosh prokuratura va boshqalar) jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar sifatida aniq belgilandi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar ham ishtirok etuvchi subyektlar sifatida e'tirof etildi<sup>2</sup>.

Navbatdagi qadam – 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon<sup>3</sup> bilan jamoat xavfsizligini milliy rivojlanishning muhim yo'nalishi sifatida belgilandi. 2023-yil 1-mayda bo'lib o'tgan referendumda Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilindi, unda inson huquq va erkinliklari davlatning oliy qadriyati sifatida e'tirof etildi<sup>4</sup>. 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi<sup>5</sup> uzoq muddatli rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab berdi.

Hozirgi bosqichning o'ziga xos xususiyati raqamlashtirish va mahalla darajasiga o'tish tendensiyasi hisoblanadi. 2025-yil 1-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining 754-son Qarori<sup>6</sup> "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida "mahalla yettiligi" konsepsiyasini rasmiylashtirdi. 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son Qaror<sup>7</sup> mazkur strategik ramka doirasida ijtimoiy profilaktika tizimining aniq mexanizmlarini o'rnatdi. Ayni paytda "E-jamoat xavfsizligi" tizimi, sun'iy intellektga asoslangan yechimlar, ovozli identifikatsiya va elektron xizmatlar jamoat xavfsizligini yangi texnologik paradigma darajasiga olib chiqmoqda.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сон Фармони // Lex.uz.

<sup>2</sup>Махмудов З. Жамоат хавфсизлиги концепцияси мамлакатда тинч ва осойишта ҳаётни таъминлаш гарови сифатида // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies. – 2022. – Vol. 2, Iss. 1. – Б. 242–245.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони // Lex.uz.

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023 йил 1 май референдумида янги тахрирда қабул қилинган). – Т.: Адолат, 2023. – 19, 25, 30, 71-моддалар.

<sup>5</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида"ги ПФ-158-сон Фармони // Lex.uz.

<sup>6</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 1 декабрдаги "Жамоат тартибини сақлаш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги Ҳукумат қарорларини тизимлаштириш тўғрисида"ги 754-сон қарори // Lex.uz.

<sup>7</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги ПҚ-1-сон "2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Lex.uz.

O'rganilgan besh bosqichning asosiy xususiyatlarini umumlashtirilgan tarzda quyidagi jadvalda taqdim etish mumkin:

**1-jadval. O'zbekistonda jamoat xavfsizligi tizimi rivojlanishining bosqichlari**

| Bosqich | Xronologik chegara      | Huquqiy xususiyatlar                                                                                              | Tizimning asosiy modeli                                                                  |
|---------|-------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| I       | XIV-XIX asrlar          | Urf-odat va diniy normalarning ustuvorligi, "Temur tuzuklari", Buxoro amirligi qonunchiligi                       | An'anaviy-tarixiy modeli: mahalla, muhtasib, oqsoqollik institutlari orqali ta'minlanadi |
| II      | 1917–1991               | XKK 1917 yil Qarori, 1924- yilgi idoraviy militsiya, 1974-yilgi SSR IIV buyrug'i                                  | Markazlashtirilgan repressiv model: sinfiy yondashuv, ideologiya ustuvorligi             |
| III     | 1991–2016               | 199-yilgi IIO qonuni, 1992-yilgi Konstitutsiya, 1997-yilgi MXK, 2014-yilgi huquqbuzarliklar profilaktikasi qonuni | Shakllanish-rivojlanish modeli: sovet va milliy elementlar simbiozi                      |
| IV      | 2016–2021               | Harakatlar strategiyasi, PF-5005, 2016-yilgi yangi IIO qonuni, PF-6196                                            | Institutsional rekonstruksiya: JXD tashkil etilishi, "Mahalla huquq-tartibot maskani"    |
| V       | 2021 - hozirgi kungacha | PF-27 va Konsepsiya (2021), Yangi Konstitutsiya (2023), PF-158, VMQ-754, PQ-1                                     | Konseptual-tizimli model: subyektlararo hamkorlik, raqamlashtirish, "mahalla yettiligi"  |

**Rivojlanishning statistik-empirik o'lchami.** Mustaqillik yillarida jamoat xavfsizligi sohasidagi rivojlanishni miqdoriy ko'rsatkichlar yaqqol namoyon qiladi:

**2-jadval. Mustaqillik yillarida jamoat xavfsizligi sohasidagi rivojlanishning miqdoriy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Lex.uz va ИИБ ҳисоботлари асосида



| Ko'rsatkich                                             | III bosqich<br>(1991–2016) | IV bosqich<br>(2016–2021) | V bosqich<br>(2021–2025)            |
|---------------------------------------------------------|----------------------------|---------------------------|-------------------------------------|
| Jamoat xavfsizligiga oid asosiy normativ hujjatlar soni | ≈ 15                       | ≈ 50                      | ≈ 100+                              |
| Sohadagi maxsus konsepsiyalar                           | 1 (Milliy XK)              | 1                         | 3+ (JX Konsepsiyasi, strategiyalar) |
| Profilaktika inspektorlari soni                         | ~ 6 500                    | ~ 9 000                   | ~ 9 500+                            |
| Xavfsizlik indeksi (Numbeo)                             | ma'lumot yo'q              | ~ 75 (2020)               | 73,4 (2025, 25-o'rin)               |
| Raqamlashtirilgan xizmatlar                             | 4–5 ta                     | ~ 15 ta                   | ~ 39 ta                             |

Jadvaldan sifat jihatidan eng yuqori o'sish 2021-yildan keyingi davrga to'g'ri kelishi ko'rinib turibdi. Normativ hujjatlar soni ikki baravarga ortgan, maxsus konsepsiyalar soni uch martaga ko'paygan<sup>1</sup>, raqamlashtirilgan xizmatlar soni esa tarixda hech qachon bo'lmagandek darajalarga chiqqan<sup>2</sup>. Mazkur o'sish - sohaning eksponensial rivojlanishini ifodalaydi va O'zbekistonning jamoat xavfsizligi sohasida tubdan yangidan tizim qurish jarayoni ustida ishlayotganligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan bosqichli tahlil jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi rivojlanishining bir necha muhim tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi:

birinchidan, davlatchilikdan kompleks subyektli yondashuvga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Agar II va III bosqichlarda jamoat xavfsizligi asosan davlat organlarining monopoliyasi hisoblangan bo'lsa, zamonaviy bosqichda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va hatto xususiy sektorning ishtiroki kengaymoqda;

ikkinchidan, repressivlikdan profilaktikaga o'tish paradigmasi kuchaymoqda. "Jinoyat sodir bo'lgach jazolash" yondashuvi o'rniga "jinoyatga olib keladigan omillarni oldindan aniqlash va bartaraf etish" paradigmasi ustuvor mavqega ega bo'lmoqda;

uchinchidan, sentralizatsiyadan mahallashuvga o'tish jarayoni kuzatilmoqda. Qarorlar markazdan mahalla darajasiga tushirilmoqda, ya'ni "mahalla yettiligi", "xavfsiz hudud", "xavfsiz xonadon" kabi tashabbuslar aynan shu tendensiyaning natijasidir;

<sup>1</sup>Атажанов Ў.М. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш масалалари: юрид. фан. доктори ... дис. автореф. – Т.: ТДЮУ, 2020. – Б. 19.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги расмий ҳисоботи. Жамоат хавфсизлиги кўрсаткичлари динамикаси – 2024. – iiv.uz.

to'rtinchidan, an'anaviy yondashuvdan raqamlashtirishga o'tish tendensiyasi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt, elektron xizmatlar, raqamli monitoring tizimlari jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi texnologik platformasini tashkil etmoqda, jumladan bugungi kunda IIV tizimida va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida "Mening inspektorim" elektron ilovasi, "E-ijtimoiy profilaktika" elektron platformasi, "Raqamli mahalla" elektron tizimi, "E-mehmon (migratsiya)" elektron tizimi, "E-muhokama" elektron moduli, "E-order" axborot tizimi, "E-material" elektron tizimi, "E-murojaat" elektron tizimi, "E-ma'muriy ish" elektron tizimi, "E-hushyorxona" elektron tizimi, "E-voyaga yetmagan" yagona axborot tizimi, "E-himoya" elektron moduli, "E-patrul" elektron platformasi, "Profilaktika hisobi" elektron tizimi, "E-prof suhbat" elektron tizimi, "E-probatsiya" markazlashgan elektron tizimi kabi elektron dastur va ilovalar foydalanilmoqda.

beshinchidan, ijtimoiy-huquqiy paradigma almashinuvi sodir bo'lmoqda. Sovet davrida davlat manfaatlari ustuvor hisoblangan bo'lsa, zamonaviy bosqichda inson, uning huquqlari va erkinliklari davlat faoliyatining oliy maqsadi sifatida e'tirof etiladi.

Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining tarixiy-huquqiy evolyusiyasi diskret-liniyali (vaqt o'tishi bilan qadamma-qadam sodir bo'ladigan) jarayon xususiyatiga ega bo'lib, u o'zining qadimiy asoslariga, tarixiy rivojlanish mantig'iga hamda zamonaviy transformatsiya vektorlariga ega.

Hozirgi davrdagi beshinchi bosqich bu nafaqat oldingi bosqichlardan sifati bilan tafovut qiladi, balki milliy tarixiy-madaniy tajribalar hamda zamonaviy xalqaro standartlar uyg'unligiga va turli g'oyalar, uslublar yoki fanlarni yagona bir butunlikka birlashtiradigan yondashuvga asoslangan sinkretik modelning shakllanish davridir. Ushbu modelning yanada chuqurlashishi hamda takomillashtirilishi zamonaviy holat va amaliy muammolar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular birlikda Yangi O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining nazariy-huquqiy poydevorini to'liq shakllanishiga mustahkam metodologik zamin yaratadi.

# YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадqiqот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000